

NAVOIY G‘AZALLARIDA BADIYYAT, BADIYY SAN’ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Shirinova Xursheda Sharifovna

Karmana tumani 10-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiyyat san’atiga ta’rif berilgan. Navoiy g‘azalllarida badiyyatning o‘rni xususida so‘z boradi. Navoiy bobomiz o‘zining “Xamsa” asari orqali badiiy mahoratini namoyish etgan. Shuningdek, g‘azallaridagi tasvirlar va she’riy san’atlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: badiyyat, badiiy san’at, tashbeh, Xamsa, mubolag‘a, “Funun ul-balag‘a”, g‘ulu, tamsil, husni ta’lil, turkiy til

O‘zbekiston adabiyoti va san’ati tarixida Navoiyning g‘azallari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Alisher Navoiy, o‘zining betakror asarlari bilan nafaqat o‘z zamonida, balki keyingi avlodlarga ham katta ta’sir ko‘rsatgan shoirdir. Uning g‘azallari, nafaqat badiiy ifoda, balki chuqur ma’no va hissiyotlar bilan boyitilgan bo‘lib, san’at va adabiyotda o‘ziga xos uslubni yaratgan.

Badiyyat – bu san’atning asosiy maqsadi bo‘lib, inson ruhini, his-tuyg‘ularini, hayotning go‘zalligini ifodalashdir. Navoiy g‘azallarida badiyyatning asosiy unsurlari juda yaxshi namoyon bo‘ladi. U, o‘z asarlarida, nafaqat so‘zlarning go‘zalligini, balki ularning ma’nolarini ham chuqur o‘ylab, badiiy san’atning barcha imkoniyatlaridan foydalanadi. Navoiy g‘azallarida ko‘plab badiiy san’at turlari – metafora, taqqoslash, aliteratsiya, takrorlash va boshqalar keng qo‘llaniladi. Bu san’at turlari orqali shoir o‘z fikrlarini yanada ravon va jozibador tarzda ifodalaydi. Misol uchun, "Xamsa" asarida Navoiy o‘zining badiiy mahoratini namoyish etib, turli obrazlar va tasvirlar orqali o‘quvchini hayratda qoldiradi.

Tashbeh-biron predmet yoki hodisaning xususiyatini shu xususiyat bor boshqa narsa va hodisalar orqali tasvirlashga qaratiladi”. Adabiyotshunosligimizda tashbeh san’ati mushabbah yoki o‘xshamish (tasvirda fikr qaratilayotgan), mushabbahin bih yoki o‘xshatilmish (tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki hodisa), vajhi sabab yoki o‘xshatish sababi (nimaga o‘xshatishning yuzaga kelganligi) odati tashbih(o‘xshatish vositasi) kabi to‘rt unsurga ega. Agar barcha unsurlar ishtirok etsa tashbihi mufasssal, agar bir ikkitasi tushib qolsa tashbihi mujmal deyiladi. Kimki ko‘rsa mushk-u nob ul sunbuli serob aro, Bir qaro tufroq degaykim tushdi mushki nob aro. Navoiy tashbehda o‘xshayotgan timsollar hayotdagi oddiy, biz bilgan narsalardir. Shuning uchun biz Navoiy tilini tushunamiz, uning fikrini anglaymiz. Alisher Navoiy ijodida eng go‘zal san’atlardan irsoli masaldan ham mohirona foydalanilgan. Bu san’at she’r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir

hodisani misol qilib keltiradi.

“Navoiy ijodida mubolag‘a san‘atidan ustalik bilan foydalanilgan. Ma‘lumki, Mubolag‘a (ar. kattalashtirish, kuchaytirish) adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash san‘ati bo‘lib, o‘quvchi ko‘z oldida yorqinroq gavdalanadi.”Funun ul-balog‘a” asarida mubolag‘a haqida shunday deydi:”Bu san‘at aningdek bo‘lurkim, narsaning vasfida mubolag‘ani had va g‘oyatdin o‘tkarurlar”. Alisher Navoiy ijodida mubolag‘aning uch turidan keng ko‘lamda foydalanilgan”. (Tablig‘lar yetkazmoq) -aqlan ishonish mumkin bo‘lgan hayotda yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘adir. “Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi, Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi” [2] . Visol va‘dasini bergan yorning kelmaganini oqibatida oshiqning kechasi uxlamay chiqishi mubolag‘ali tasvir, lekin bu holatni hayotda aqlan tasavvur qilish mumkin va ba‘zan hayotda ham uchrab turadi. Ig‘roq(ar. kamonni qattiq tortmoq)-aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz bermaydigan mubolag‘adir.Bunday tasvirda o‘quvchi voqea yoki xususiyatni hayolida tasavvur etib, ko‘z oldiga keltiradi, biroq uning hayotda yuz berishi hayolga sig‘maydi. Masalan “Farhod va Shirin”da Farhodning kuch quvvati shu san‘atdan foydalanib bo‘rttirilgan. 3)”G‘ulu (ar. qo‘lni boricha baland ko‘tarish) aql bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin emas”. “Har qil gulkim,yuzing shavqida olib islاديم, Yetkach ohim shu‘lasi, oni sorig‘ gul aylاديم” [3]. Baytda keltirilishicha, oshiq o‘z yorini sog‘inib, gulni olib hidlagan ekan, qizil gul sariq gulga aylanibdi. Bu hayotda yuz berishi umuman mumkin emas. Navoiy ijodida mahorat bilan qo‘llangan ma‘naviy san‘atlar orasida eng murakkablaridan biri bu husni ta‘lildir. U arabcha “chiroyli dalillash “ degan ma‘noni bildiradi. U biror voqea, narsa, holatni unga aloqasi bo‘lmagan bosh bir narsaga o‘xshatish san‘atidir. Bunda shoir go‘zal bir ifoda keltirib o‘tishi kerak: Nomai shavqum ne nav ul oyg‘a yetkay, chunki men, El otin o‘qir hasaddin yozmadim unga unvon. Alisher Navoiy husni ta‘lil ifodasi uchun xizmat qiladigan hayotiy timsollarning ko‘lamini kengaytirib, o‘zigacha bo‘lgan fors-tojik va turkiy tillarda qo‘llanmagan badiiy timsollarni olib kiradi.

Alisher Navoiy ijodida tamsil san‘ati ham o‘zgacha bir ruhda tasvir etilgan. Ma‘lumki, tamsil arabcha “misol keltirish, dalillash “ degan ma‘nolarni bildiradi. Zaxmin ichra qoldi paykoning, ne yanglig‘ butkay ul, Chunki qo‘ymas yarag‘a yopishqali malham suv. Baytda oshiq o‘z yarasida yorning o‘qi (kiprigi) qolganini va uning bitishi amri mahol ekanini aytar ekan, bunga malham qo‘ymoqchi bo‘lsalar,suv unga yopishgani qo‘ymayotganini sabab qilib ko‘rsatadi.

“Navoiy ijodidagi eng yuksak san‘atlardan biri talmeh san‘atidir. Bunda shoir baytlarda o‘tmishda o‘tgan yoki o‘z zamondoshlarining eng mashhurlarining nomini, adabiy asar qahramonlarini, joy nomlarini keltirib o‘tadi”. Rumu chin bo‘ldilar anga mahkum, Balki xoqoni Chin qaysar-i Rum. “Alisher Navoiy turfa xil san‘atlardan mohirlik bilan foydalanilgan”. Bilib turib bilmaslikka olish” ma‘nosini ifodalovchi

she'riy san'atlardan biri bu tajohuli orif san'atidir. Bu san'at qo'llangan baytlarda ko'pincha mahbuba qiyofasi qiyosiy holda tasvirlanib, bir yoki bir nechta narsaga o'xshatiladi lekin aniq gap aytilmaydi". Buki ko'nglum yarasidan oqadur qonmu ekin, Yo qizorib erigan suv kabi paykonmi ekan. Alisher Navoiyning ga'zalchilikdagi badiiy mahoratini uning badiiy san'atlar qo'llashidan ham bilish mumkin. Chunki Navoiy badiiy san'atlarga shunchaki bir oddiy vosita deb qaramaydi. Aksincha, badiiy san'atlar g'azalning bir qismi bo'lib, undan mohirona foydalanish g'azalning musiqiylikini, o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Alisher Navoiy badiiy san'atlarning hamma turidan, ma'naviy va lafziy san'atlarning har biridan unumli foydalanadi. Alisher Navoiy badiiy san'at qo'llashda ham me'yorga rioya qilish kerakligini uqtiradi. Haddan ziyod badiiy san'atning qo'llanishi g'azalni qo'pol va tushunarsiz qilib qo'yadi.

Navoiyning g'azallari o'zining til va uslub jihatidan ham ajralib turadi. U, o'z asarlarida arab, fors va turkiy tillarni birlashtirib, yangi badiiy muhit yaratdi. Bu esa uning asarlarini yanada boyitdi va o'ziga xosligini oshirdi. Navoiy g'azallarida badiiy san'atlardan foydalanish mahorati shundaki, u har bir so'zni ehtiyotkorlik bilan tanlaydi va ularning bir-biri bilan uyg'unligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, uning asarlarini o'qiyotgan insonni chuqur hissiyotlarga cho'mdiradi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning g'azallari badiiyat va badiiy san'atning mukammal namunasidir. U, nafaqat so'zlar bilan, balki hissiyotlar va tasvirlar bilan ham o'quvchini hayratga soladi. Uning asarlaridagi badiiy san'atdan foydalanish mahorati esa adabiyotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qismidir. Navoiy g'azallari bizga nafaqat go'zallikni, balki hayotning chuqur ma'nolarini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, Alisher Navoiy badiiyat olamida o'ziga xos yodgorlik qoldirgan buyuk shoirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" Xamsa: MAT (Mukammal asarlar to'plami). 7-jild. T.: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub / MAT. 14-jild. T.: Fan, 1998
3. Alisher Navoiy. Devoni Foni / To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 4-jild. – T.: G'.G'ulom, 2011.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n uchinchi tom. Majolis un-nafois. Toshkent: Fan, 1997. – 300 b.
5. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. Ikkinchi jild. T-H. Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016. – 500 bet.